

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI VA FOLKLOR KAFEDRASI**

**“O‘ZBEK FOLKLORI” FANI BO‘YICHA
O‘QITUVCHI SILLABUSI**

Tuzuvchi: filologiya fanlar nomzodi, dotsent Abdumurod Tilavov

Fan/modul kodi 300.1O‘FL6M		O‘quv yili 2020-2021	Semestr 1 (kuzgi)	ECTS - Kreditlar 6	
1 semestrda ECTS – Kreditlar soni – 6		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
Fanning darajasi 300		Fan/modul turi Majburiy		Modul rahbari Abdumurod Tilavov a.tilavov@mail.ru	
Universitet kampusi 1-blok		Hafta kunlari Dushanba, chorshanba, juma		Vaqt Kunning birinchi yarmida	
1-semestr	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O‘zbek folklori		<i>90 soat</i>	<i>90 soat</i>	<i>180 soat</i>
	JAMI		<i>90 soat</i>	<i>90 soat</i>	<i>180 soat</i>

Fanning tavsifi:

“O‘zbek folklori” fanining ahamiyati xalq og‘zaki ijodi janrlari va ularning poetik xususiyatlari, janrlararo munosabat mezonlari, adabiyot hamda folklor munosabatini ilmiy asoslash kabilar bilan belgilanadi. Xalq og‘zaki ijodining sinkretik san‘at ekanligi, boshqa san‘at turlaridan ma’lum farqli jihatlarga egaligi, o‘zbek folklorining tarixiy taraqqiyot bosqichlari kabilar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Fan mohiyati:

“O‘zbek folklori” fanini o‘zlashtirishda o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar mashg‘ulotlari shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta’lim sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning “bumerang”, “matbuot konferensiyasi” singari ilg‘or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi.

Fanning natijasi:

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba “O‘zbek folklori” fani predmeti va uning tarkibiy qismlari, boshqa fanlar bilan aloqasi, O‘zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti, nazariy asoslari, janrlar takomili va ijro jarayonlarini tahlil qilish, Folklor namunalarini guruhlash, janrlar ichki tasnifini yaratish va shu asosda tahlil qilish, xalq dostonlarida turkumlik muammosini dostonlar mutolaasi bilan hal qilish, folklor asarlarini ekspeditsiya jarayonida yozib olish, ularning poetik xususiyatlarini tahlil qilish to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi.

Baholash mezonlari:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018 yil 26 sentabrdagi 3069-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi” nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash ON, YaN dan iborat.

Turi	Foizi	Saralash turi	Shakli
Og‘zaki yoki yozma imtixon	50%	ON, YaN	Savol-javob, loyiha ishi
Mustaqil ta’lim	50%		Taqdimot

Ta’lim berish va o‘qitish metodlari:

interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

Kalit so‘zlar:

folklor, doston, ertak, folklorshunoslik, xalq og‘zaki ijodi, ijro an’anasi, xalq qo‘shiqlari, marosim, o‘yin folklori, syujet va motiv, asar strukturasi, pir va eranlar, milliy qadriyatlar, milliylik, mavzu, g‘oya, badiiy tasvir.

Mavzular ro‘yxati:

**“O‘zbek folklori” fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlari:
1-semestr**

№	Mavzular	Soat
1.	Mustaqillik davrida o‘zbek xalq og‘zaki ijodini o‘rganishning etakchi masalalari, yangicha yondashuv va talqinlar. Xalq og‘zaki ijodi so‘z san’ati sifatida.	2
2.	Mif va mifologik olam tushunchasi. Afsona, rivoyat, naqlar badiiyati	2
3.	O‘zbek marosim folklorining janrlar tarkibi va badiiyati	2
4.	Xalq dostonlari	2
5.	Qahramonlik dostonlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari	2
6.	Romanik dostonlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari	2
7.	Kitobiy dostonlarning xalq ma’naviy hayotidagi o‘rni	2
8.	Xalq ertaklari	2
9.	Qo‘shiq va lirika. Mehnat qo‘shiqlari va termalar	2
10.	Bolalar folklori va ularning talqinlari, badiiy xususiyatlari	2
11.	Lirik qo‘shiqlar	2
12.	Xalq maqollari, topishmoqlar va chaldirmoq janri	2
13.	Latifalar, lof	2
14.	Askiya	2
15.	Tomosha san’ati	2
	Jami	30

“O‘zbek folklori” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlari:

№	Mavzular	Soat
1.	Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, versiya va variantlarining farqli jihatlari	2
2.	Mif, afsona, rivoyatlar va ularning badiiyati	2

3.	Mavsumiy marosim folklori namunalari badiiyati va ularning tahlili	2
4.	Oilaviy marosimlar tadriji	2
5.	O‘zbek xalq dostonlarida pir va eran obrazlari	2
6.	“Malika Ayyor” dostoni tahlili	2
7.	Dostonchilik maktablari va ularning an’analari	2
8.	Maishiy ertaklar va ularning tahlili	2
9.	“Alpomish” dostoni tahlili	2
10.	“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tahlili	2
11.	Marosim qo‘shiqlari: ijro o‘rni va badiiyati	2
12.	“Kuntug‘mish” dostoni tahlili	2
13.	Bolalar qo‘shiqlari	2
14.	Latifa, lof va askiya janrlari namunalari tahlili	2
15.	Lirik qo‘shiqlardagi ramzlar	2
	Jami	30

“O‘zbek folklori” fani bo‘yicha seminar mashg‘ulotlari:

№	Mavzular	Soat
1.	Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos belgilari	2
2.	Xalq og‘zaki ijodining janrlari. Janrlararo munosabatlar	2
3.	Mavsumiy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati	2
4.	Oilaviy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati	2
5.	Qahrmonlik dostonlari xususiyatlari	2
6.	Ishqiy-romanik dostonlar tabiati	2
7.	Kitobiy dostonlar	2
8.	Xalq kitoblarining janr xususiyatlari	2
9.	Xalq ertaklari turlari va ulardagi obrazlilik	2
10.	Lirik qo‘shiqlarda ramziylik	2
11.	Mehnat qo‘shiqlarini yaratilishi, tarixi va badiiyati	2
12.	Bolalar folklori: janrlari taraqqiyoti va xususiyatlari	2
13.	Alla janri xususiyatlari va badiiyati	2
14.	O‘zbek xalq maqollari janr xususiyatlari va genezisi	2
15.	Topishmoq janri va undagi badiiy san’atlarning o‘rni	2
	Jami	30

FAN BO‘YICHA SAVOLLAR TO‘PLAMI

1. “Alplik” tizimi qahramonik dostonlari asosi sifatida
2. “Alplik” tizimi qahramonik dostonlari asosi sifatida
3. “Alpomish” dostonining versiya va variantlari.
4. “Alpomish” dostoni va mifologiya.
5. “Alpomish” dostonida avlod shajarasi va uning dostonidagi ahamiyati
6. “Alpomish” dostonida Chambil obrazi.
7. “Alpomish” dostonida makon tasiviri
8. “Alpomish” dostonida qullar obrazi va ularning mohiyati
9. “Alpomish” dostonida Qultoy obrazining vazifalari
10. “Alpomish” dostonida safar motivi
11. “Alpomish” dostonida Ultontoz obrazi.
12. “Alpomish” dostonidagi tush talqinlarining mifologik asoslari haqida ma’lumot bering.
13. “Alpomish” dostonining asosiy variantlari.
14. “Alpomish” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari
15. “Alpomish” dostonining etakchi g‘oyasi.

16. "Go'ro'g'li" turkumining o'zbek epik merosidagi o'rni
17. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida makon tasviri
18. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida alplik tizimi
19. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida Bibihilol obrazi va uning ahamiyati
20. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida Chambil obrazi.
21. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida Go'ro'g'lining bolaligi: sir ko'rsatishi va telbaliklari
22. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida qahramon xarakterini yorituvchi vositalar
23. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida safar motivi
24. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida sinchi obrazi
25. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida vaqtni anglatuvchi elementlar
26. "Guro'g'lining tug'ilishi" dostonida mifologik elementlar
27. "Kelin salom" janrlarining marosim lirikasidagi o'rni va badiiyati.
28. "Kelin salom" janrlarining o'ziga xos xususiyatlari.
29. "Kuntug'mish" dostonida umuminsoniy g'oyalar
30. "Kuntug'mish" dostoni syujet qurilishida an'anaviylik
31. "Kuntug'mish" dostonida "Nard" o'yini sinovi va undagi shartlilik
32. "Kuntug'mish" dostonida "taqdir" tushunchasining aks ettirilishi
33. "Kuntug'mish" dostonida makon, zamon va vaqt birligi
34. "Kuntug'mish" dostonida mifologik elementlar
35. "Kuntug'mish" dostonida peyzaj tasviri
36. "Kuntug'mish" dostonida qahramon xarakterini yorituvchi vositalar
37. "Kuntug'mish" dostonida qahramon xarakterini yoritishda yondosh obrazlarning ahamiyati
38. "Kuntug'mish" dostonida Qoraxon obrazi
39. "Kuntug'mish" dostonida ramziy obrazlar
40. "Kuntug'mish" dostonida raqib obrazi va ularning ahamiyati
41. "Kuntug'mish" dostonida safar motivi va ahamiyati
42. "Kuntug'mish" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
43. "Layli va Majnun" dostonida epik an'analar
44. "Layli va Majnun" dostonida sinov motiflari
45. "Layli va Majnun" dostonida sinov motiflari
46. "Layli va Majnun" dostonining o'ziga xos xususiyatlari.
47. "Malika Ayyor" dostoni Torkiston tasviri
48. "Malika Ayyor" dostonida "DEV" obrazlari va ularning vazifalari
49. "Malika Ayyor" dostonida "tog'" obrazi
50. "Malika Ayyor" dostonida Devlar makoni va ularning an'anaviy dostonlardagi makonlar bilan aloqasi
51. "Malika Ayyor" dostonida hamroh obrazi tahlili
52. "Malika Ayyor" dostonida jang tasviri
53. "Malika Ayyor" dostonida Mahmud obrazi va uning ahamiyati
54. "Malika Ayyor" dostonida merganlar obrazi va uning ahamiyati
55. "Malika Ayyor" dostonida Shozargar obrazi va uning ahamiyati
56. "Malika Ayyor" dostonida Tillaqiz obrazi va uning ahamiyati
57. "Malikai Ayyor" dostoni va uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
58. "Susambil" ertagining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
59. "Sust xotin" marosimi.
60. "Uch og'a-ini botirlar" ertagining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
61. Afandi latifalarida ijtimoiy hayot
62. Afsona janri, uning talqinlari.
63. Alla jarining badiiyati.
64. Alla va uning turlari.
65. Alpomish – alp qahramon.
66. Askiya janrlarining o'ziga xos xususiyatlari

67. Askiya san'ati va payrovlar
68. Askiya va uning turlari.
69. Badihago'ylik, omonimlik nima?
70. Bahorda o'tkaziladiga mavsumiy marosim folklori namunalari badiiyati va ularning tahlili
71. Baxshi repertuarining asosiy xususiyatlari va uning boyib borish omillari.
72. Baxshi va uning auditoriyasi masalalari.
73. Baxshilik san'ati va etakchi dostonchilik maktablari haqida ma'lumot bering.
74. Baxshilik san'atida ustoz va shogird an'analari.
75. Baxshi-shoirlarning estetik qarashlari
76. Bolalar folklori janrlar: xususiyati va badiiyati.
77. Bolalar folklori va uning janrlar tarkibi.
78. Bolalar qo'shiqlari.
79. Boychechak marosimi va qo'shiqlari.
80. Boychechak marosimi va uning mavsumiy marosimlar tizimidagi o'rni.
81. Bugungi kun folklori va folklorshunosligi.
82. Bulung'ur Dostonchilik maktabi
83. Chaldirmoq janri va topishmoqlar munosabati.
84. Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
85. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
86. Doston atamasining izohi va janr tabiati.
87. Doston janri va uning o'ziga xos xususiyatlari.
88. Dostonchilik maktablari va ularning tarixiy taqdiri.
89. Dostonchilik san'ati va uning asosiy xususiyatlari.
90. Dostonda Alpomish obrazi.
91. Dostonda Avaxxon obrazi.
92. Dostonda Barchin obrazi.
93. Dostonda Boychibor obrazi.
94. Dostonda Chambil obrazi.
95. Dostonda Qaldirg'och obrazi.
96. Dostonda Qalmoq alplari obrazi.
97. Dostonda Qorajon obrazi.
98. Dostonda Qultoy obrazi.
99. Dostonda Surxayl kampir obrazi.
100. Dostonda Ultontoz obrazi.
101. Dostonlar tasnifi.
102. Dramatik tur va uning janrlari.
103. Epik asarlar strukturasi.
104. Epik boshlamani epos stukturasi va semantikasida tutgan o'rni.
105. Epik ijodda ko'makchi qahramon masalasi
106. Epik ijroda versiya va variantlilik masalasi
107. Epik tur va uning janrlari.
108. Eposda alplik tizimining o'rni.
109. Ertak atamasining izohi va janr tabiati.
110. Ertak janrining o'ziga xos xususiyatlari va tasnifi.
111. Ertaklar tasnifi.
112. Ertaklarda homiy obrazi.
113. Folklor asarlari strukturasi.
114. Folklor asarlarida mifologik obrazlar.
115. Folklor asarlarida tarixiylik masalasi.
116. Folklor asarlarining tur va janrlarga bo'linishi.
117. Folklor atamasi va u haqdagi umumiy tushuncha.
118. Folklor ijro san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari

119. Folklor milliy ma'naviyatimizning asoslaridan biri sifatida.
120. Folklor so'z san'ati sifatida.
121. Folklor va folklorshunoslik. Mustaqillik davri folklori.
122. Folklor va yozma adabiyot.
123. Folklorda an'ana va badiha masalalari.
124. Folklorda an'anaviylik xususiyati.
125. Folklorda anonimlik xususiyati.
126. Folklorda badihago'ylik xususiyati.
127. Folklorda jamoaviylik xususiyati.
128. Folklorda janr tushunchasi va mezonlari.
129. Folklorda motiv va syujet
130. Folklorda og'zakilik xususiyati.
131. Folklorda versiya va variantlilik masalasi.
132. Folklorning o'rganilish tarixi. Mustaqillik davri folklori.
133. Folklorning o'ziga xos xususiyatlari. Bugungi kun folklorshunosligi.
134. Folklorning o'ziga xos xususiyatlari. Postfolklor hodisasi.
135. Folklorning o'ziga xos xususiyatlarlari va folklorshunoslikning nazariy masalalari.
136. Folklorning tur va janrlarga bo'linishi.
137. Folklorshunoslikning nazariy masalalari.
138. Hayotiy-maishiy ertaklar haqida ma'lumot bering.
139. Hayvonlar haqidagi ertaklar haqida ma'lumot bering
140. Hayvonlar haqidagi ertaklarda mifologik obrazlar.
141. Hizr obrazining mifologik asoslari.
142. Homiy eranlar obrazi va mif.
143. Ishqiy-romanik dostonlar tabiati
144. Istiora topishmoq janrining asosiy poetik san'ati sifatida.
145. Istiqlol davri o'zbek folklori va folklorshunosligi.
146. Jangnoma dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari
147. Kasb-hunar bilan bog'liq qo'shiq turlari va badiiyati.
148. Kitobiy dostonlarga xos etakchi xususiyatlarni ko'rsating.
149. Kuzda o'tkaziladiga mavsumiy marosim folklori namunalari va ularning tahlili
150. Lapar janri xalq lirikasida tutgan o'rni.
151. Latifa janrining o'ziga xos xususiyatlari.
152. Latifa va loflarnig o'xshash va farqli jihatlari.
153. Latifalarda Nasiriddin Afandi obrazi tahlil.
154. Lirik qo'shiqlar haqida ma'lumot bering.
155. Lirik qo'shiqlar va ularning o'rganilishi.
156. Lirik qo'shiqlarda "g'oz, o'rdak, qarg'a" ramziy obrazlarining ma'no qatlamlari.
157. Lirik qo'shiqlarda "Olma, ro'mol, tol" ramziy obrazlarining ma'no qatlamlari.
158. Lirik qo'shiqlarda o'zak, birikma va vaziyat ramzlari.
159. Lirik qo'shiqlarning janr xususiyatlari.
160. Lirik tur va uning janrlari.
161. Lof janrlarining o'ziga xos xususiyatlari.
162. Lof xalq og'zaki ijodida mubolag'a san'ati qo'llaniluvchi janr.
163. M.Koshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asarida xalq maqollari.
164. Maqol janr xususiyatlar.
165. Marosim folklorining tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari.
166. Marosim qo'shiqlari badiiyati.
167. Marosim va epos.
168. Marosim va uning eposda badiiy aks etishi.
169. Marosim va uning qiyosiy tadqiqi masalalari.
170. Mavsum marosim qo'shiqlari va ularning janriy xususiyatlari.

171. Mavsumiy marosimlar janrlari.
172. Mavsumiy marosim janrlari va mifologiya.
173. Mehnat qo‘shiqlari.
174. Mif atamasiga baho bering, o‘zbek miflarini talqin qiling.
175. Mif tushinchasi, miflar tasrifi.
176. Mif va afsona.
177. Mif va epos.
178. Mif va ertak.
179. Mif va mifologik tasavvurlar.
180. Mif va uning o‘rganilishi.
181. Mif, afsona va rivoyatlar haqida ma’lumot bering.
182. Mifologik tafakkurning badiiy estetik tafakkurga o‘tishini izohlang.
183. Mustaqillik davri folklor ijro san’ati va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
184. Mustaqillik davri o‘zbek folklorining o‘rganilishi.
185. Mustaqillik davri o‘zbek folklorshunosligining taraqqiyot bosqichlarini ayting.
186. Naql janrining etakchi xususiyatlari va talqini.
187. Narpay dostonchilik maktabi.
188. Navro‘z bayramining genezisi va qo‘shiqlari.
189. O‘lan janri va uning badiiy xususiyatlari.
190. O‘lan janrining o‘ziga xos xususiyatlari.
191. O‘zbek bolalar folklori.
192. O‘zbek dostonchilik maktablari.
193. O‘zbek ertaklarining o‘rganilishi.
194. O‘zbek folklori va folklorshunosligi. Mustaqillik davrida folklor san’ati.
195. O‘zbek folklorida mifologik obraz.
196. O‘zbek xalq dostonlari va uning tasnifi masalalari.
197. O‘zbek xalq dostonlarida chiltan obrazi.
198. O‘zbek xalq dostonlaridagi an’anaviy motivlar.
199. O‘zbek xalq ijodida turkumlik masalasi.
200. O‘zbek xalq lirik qo‘shiqlaridagi etakchi ramziy obrazlar tahlili.
201. O‘zbek xalq lirikasining badiiy tadqiqi.
202. O‘zbek xalq maqollari.
203. O‘zbek xalq maqollarining o‘rganilishi va tasnifi masalalari.
204. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida daryo va sandiq badiiy obraz sifatida, ularning “Kuntug‘mish” dostonidagi ahamiyati.
205. O‘zbek xalq qo‘shiqlarini tarixiy asoslariga ko‘ra tadqiq etish.
206. O‘zbek xalq tomosho san’ati.
207. Og‘zakilik, an’anaviylik va ommaviylik nima?
208. Oilaviy maishiy marosim qo‘shiqlari va ularning bugungi ijro holatini.
209. Oilaviy marosim janrlari va ularning etakchi xususiyatlari.
210. Oilaviy marosimlar tasnifi.
211. Pari obrazi va uning mifologik asoslari.
212. Qahramonlik dostonlari.
213. Qahramonlik eposining asosiy xususiyatlari.
214. Qishda o‘tkaziladigan mavsumiy marosim folklori namunalari va ularning tahlili.
215. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi.
216. Qo‘shiq atamasi va janriy xususiyatlari.
217. Quyosh turkum miflari va “Go‘ro‘g‘li” eposi.
218. Ramazon qo‘shiqlari.
219. Rivoyatlar tasnifi va talqini.
220. Romanik dostonlar.
221. Romanik eposning o‘ziga xos belgilari.

222. Romanik dostonlarga xos etakchi xususiyatlarni ko'rsating.
223. Sehrli fantastik ertaklar haqida ma'lumot bering.
224. Terma ijro san'ati.
225. Terma janri va uning dostonchilik san'atida tutgan o'rni.
226. To'y marosimlari folklori.
227. Tomosha san'ati.
228. Topishmoq aytish tartibi va shartlari.
229. Topishmoqlardan badiiy san'anlarning qo'llanilishi.
230. Topishmoqlarning janr xususiyatlari va turlari.
231. Totemistik miqlar.
232. Totemizm, animizm, fetishizm tushunchalari.
233. Turkiy miqlarning vujudga kelish davrlari.
234. Xalq dostonlarida an'anaviy epik formulaning struktural semantik vazifasi.
235. Xalq dostonlarida turkumlik masalasi.
236. Xalq dostonlarining tasnif etishning asosiy prinsiplari.
237. Xalq latifalari haqida ma'lumot bering.
238. Xalq lirikasida poetik ramz va ularning semantikasi.
239. Xalq maqollari haqida ma'lumot bering.
240. Xalq maqollarida millat maishiy hayotining aks etishi.
241. Xalq maqollarining janr xususiyatlari va mavzu qamrovi.
242. Xalq maqollarining mavzu ko'lami.
243. Xalq maqollarining o'z va ko'chma ma'nolari.
244. Xalq maqollarining tasnifi va badiiyati.
245. Xalq og'zaki ijodida janrlararo munosabatlar.
246. Xalq og'zaki ijodida tur va janrlar.
247. Xalq og'zaki ijodida yumor.
248. Xalq og'zaki ijodining janrlari poetikasi.
249. Xalq og'zaki ijodining janrlari tasnifi.
250. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari.
251. Xalq qo'shiqlarida ranglar simvolikasi.
252. Xalq qo'shiqlariga xos etakchi xususiyatlar va janrning o'rganilishi.
253. Xalq qo'shiqlarining ilmiy o'rganilishi.
254. Xalq qo'shiqlarining badiiyati.
255. Xalq termalari. Janr xususiyatlari va badiiyati.
256. Xalq topishmoqlari haqida ma'lumot bering.
257. XOIda versiya va variantlarining farqli jihatlari
258. Xorazm dostonchilik maktabi.
259. Yor-yor janri badiiyati.
260. Yor-yor janrining o'ziga xos xususiyatlari.
261. Yozda o'tkaziladiga mavsumiy marosim folklori namunalari va ularning tahlili

**FOYDALANILADIGAN DARSLIKLAR VA O'QUV
QO'LLANMALAR RO'YXATI**

Asosiy adabiyotlar

1. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek folklori /Darslik. –Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2020.
2. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –Toshkent: “Fan”, 2009.
3. Safarov O. O'zbek xalq og‘zaki ijodi. –Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 2010.
4. Madayev O. O'zbek xalq og‘zaki ijodi. –Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2013
5. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. –Toshkent: “Aloqachi”, 2008.

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. Madayev O. O'zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. (Nazariy kurs matni). –Toshkent, 1999.
7. Мирзаев Т. Эпос и сказител. – Ташкент: Фан. – 410 с.
8. Turdimov Sh. Etnos va epos. –Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
9. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. –Toshkent: “Fan”, 2008.
15. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. –Toshkent: “Fan”, 2006.
16. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. –Toshkent: “Fan”, 2010.
17. O'zbek xalq og‘zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015, 2016.

Internet saytlari

18. lectures.ndpi.uz>lektions
19. news.uzreport.uz>news 9 u136022
20. www.folklore.ru.
21. www.folksentr.ru
22. <https://m.vk.com>>club1962650
23. folklore.tomsk.ru
24. www.ruthenia.ru>folklore

O‘qituvchining kontakt ma’lumotlari:

Abdumurod Tilavov a.tilavov@mail.ru
Tel: +998 94 6252507

O‘qituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti:

dushanba, chorshanba, juma kunlari soat 13:00 dan 15:00 gacha